

**KASB TANLASHGA MUNOSABAT TIZIMI MOTIVASIYASINI O'RGANISH
IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA****Meyliyeva Mutabar Sayfullayevna***Chirchiq Davlat pedagogika Universiteti**Psixologiya fakulteti. o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'sib kelayotgan yozsh avlodni kasbga to'g'ri yo'naltirish haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek kasb tanlashga munosabat tizimi motivatsiyasini o'rganishdagi ijtimoiy psixologik muammo sifatida o'rganish haqida ham gap boradi.*

Kalit so'zlar: *kasb, ilmiy tadqiqot, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, malakali kadrlar.*

Kasbga yo'naltirish muammosini hal qilish nafaqat u yoki bu shaxsning, oilaviy muhitning, balki butun bir davlatning muhim strategik vazifasi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ushbu jarayonni har jihatdan puxta tadqiq etish, tahlillash va shuningdek, tegishli tavsiyalar ishlab chiqqan holda ularni amaliyotga tatbiq qilish natijasida shaxs bilan jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga ma'lum darajada hissa qo'shish mumkun. Qolaversa, kasb tanlashdagi ommaviy tarzda muvaffaqiyatsizlik shaxsning faoliyati va faolligiga salbiy ta'sir etishi, ayni paytda u yoki bu soha bo'yicha mehnat unumdorligi pasayishi sub'ekt bilan faoliyat o'rtasidagi munosabatga nomutanosibliyi yuzaga kelishidek ayanchli ijtimoiy-psixologik asoratlarni keltirib chiqarishi ehtimoldan xoli emas. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat, jamiyat, jamoa, tomonidan muhim strategik va taktik vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalar yoshlarni turli kasb tanlashga yo'naltirish imkonini beradigan o'rta maktablarning ijtimoiy-siyosiy ta'lim tizimi bilan, shuningdek, matbuot, kino, radio, televideniya vositalarida kasbiy ma'rifat va kasbiy targ'ibot orqali ularning qobiliyatini aniqlashga qulay sharoit yaratadigan, ularga amaliy tavsiyalar beradigan kasbiy maslahatlar joriy etish yordamida amalga oshiriladi. Shuningdek, shaxsning qobiliyatiga ko'ra kasb tanlash va kasbga uni ko'niktirish (biologik, jismoniy, muhit sharoitiga ko'nikish, ijtimoiy-kasbiy ta'lim orqali kasb bilan tanishish va ishlab chiqarish jamoalariga qo'shilish) yo'li bilan joriy qilinadi. Umuman, shaxsni kasb tanlashga yo'naltirish muammosiga o'ziga ijtimoiy-psixologik tamoyillar asosida yondashish tendensiyasi ko'zga tashlanadi. Jumladan, olimlar tomonidan "kasbga yo'naltirish uchburchagi" tavsiya etilgan va uning birinchi tomoni - turli kasblarning insonga qo'yadigan talablarini puxta bilishdir. Ikkinchi tomoni- ijtimoiy kutilmagan mehnat bozorini, jamiyatning (tor ma'noda – shahar, tumanning) u yoki bu mutaxassisga nisbatan ehtiyojini aniqlashdir. Bu voqelik mohiyatiga ko'ra iqtisodiy va ijtimoiy muammodir, biroq usiz sub'ektlarni kasb tanlashga yo'llash mumkin emas. Kasbga yo'naltirishning uchinchi tomoni va bunga oid barcha

ishlarning asosi shaxs xususiyatlarini, eng avvalo kasbga yo'naltirilayotgan insonning qobiliyati va istagini aniqlash, tashxis qilishni o'z ichiga oladi. Bu borada ijtimoiy voqelikning eng muhim tomoni shundaki, maktab davrida kichik guruh a'zolari hisoblanmish o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki, faol shaxsiy faoliyat yurita bilish va o'zini-o'zi anglash ko'nikmasini uzliksiz ravishda shakillantirib borish lozim. Bu asnoda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" bizni shu maqsadga yo'naltiradi. Mazkur yondashuv har bir umum ta'lim muassasasining aniq kasb tanlashga yo'naltirish dasturi bo'lishi joiz.

Maktab ta'lim tizimi o'quvchilarda kasbiy o'zini - o'zi anglash jarayonining shakillanishiga ta'sir etadi. Ushbu jarayonning muaffaqiyatli ishlarining mazmunini, prinsiplarini, tashkiliy shakillarini, usul va vositalarini belgilovchi, ularga kasb-kor olami va shaxsiy xususiyatlarini o'rganishga yordam beruvchi, ongli ravishda kasb tanlashni ta'minlovchi, faoliyat sohalariga talabgorning qobiliyati va qiziqishiga javob beruvchi, uning salomatligiga va jismoniy imkoniyatiga mos keluvchi va shu bilan birga mehnat bozorining kadrlarga bo'lgan ehtiyojini aks ettiruvchi kasb turiga yo'naltirish ishlari tizimida munosabat uzliksiz hukm surishi lozim.

Bizning vazifamiz maktabning har bir o'quvchisini muvaffaqiyatli kasbiy o'zini - o'zi anglashi uchun zaruriy sharoit yaratgan holda har bir sub'ektning moyilligi, qiziqishi va qobiliyatini aniqlash hamda rivojlantirish asosida mustaqil va ma'naviy sog'lom, ijodiy fikrlovchi shaxsni shakillantirishdir.

Hozirgi kundagi amaliyot ijtimoiy muayyan kichik guruhga kiruvchi o'quvchilarni tashxis qilish va kasb tanlashga yo'naltirish, kasbiy o'zini-o'zi anglash mexanizmlarini yuzaga chiqarishning psixologik muolajalariga muhtojlik jarayonini kechirmoqda. (R.Jo'rayev- 2003).

Darhaqiqat, ijtimoiy turmush buyurtmalariga asoslangan holda kasbiy ta'limning to'g'ri tashkil etilishi, uning nazariy hamda amaliy talablariga javob bera olishi kichik guruh a'zolari hisoblanmish o'quvchilarda kasb tanlashga nisbatan ijobiy munosabat tizimining shakillanishi uchun muhim manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

O'sib kelayotgan yosh, bunyodkor avlodni kasb tanlashga yo'naltirish, har bir shaxsning o'ziga xos ichki imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim tizimini tashkil etish har bir jamiyatning asosiy, dolzarb vazefalaridan biri hisoblanadi. Zero, bugungi kunda kasb ta'limi va kasbiy yo'nalganlik muammosining zaruriyat ekanligini ko'rsata oluvchi va uning o'ziga xos metodologik "ildizlarini" asoslab beruvchi ilmiy adabiyotlar, tadqiqotlar va qo'llanmalarni alohida qayd qilib o'tish joiz. Mazkur ilmiy adabiyotlarda kasb tanlash muammosining turli yo'nalishlari ijtimoiy voqelik sifatida ma'lum darajada ochib beriladi. Bu esa kasb tanlash jarayonining nihoyatda ko'p qirrali va keng ko'lamli ijtimoiy hodisa, ijtimoiy taraqqiyot omili ekanligidan dalolat beradi.

Yoshlarni kasbga yo'naltirish jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekanligidan kelib chiqqan Sharq mutafakkirlarining qarashlari alohida qiymatga ega. Jumladan, Abu Nasr Forobiy(870-980) ruhshunoslik ilmining o'ziga xos amaliyotchisi va nazariyotchisi sifatida shaxsning oqil, dono va hunarli bo'lishi haqida qator ilmiy risolalar yozib qoldirgan allomalardan biridir. Chunonchi, u "Fozil odamlar shahri" nomli asarida davlatni har tomonlama etuk, eng mukammal insoniy fazilatlarni o'zida jo qilgan kishilar yordamida idora etish masalasiga jiddiy e'tibor qaratgandir. Ularning mulohazalariga ko'ra har qaysi sohaning mahoratli kasb egasigina istiqbol rejasiga, ijtimoiy kutilmasiga erisha oladi, xolos.

Buyuk qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino (980-1037) bola shaxsining turli-tumanligini hisobga olgan holda uni shakillantirish masalasini ko'targan. Uning "Donishnoma", "Risolai ishq", "Uy ho'jaligi", "Tib qonunlari" kabi qator asarlarida insondagi irodaviy sifatlar orqali kamolot istiqbollari belgilab berishga xizmat qiladi, degan g'oya yotadi. Ularning aksariyat asarlarida "ustoz-shogird" muammosi o'z ifodasini topgan.

Abu Rayhon Beruniyning (973-1048) inson omilini tadqiq qilishdagi ijtimoiy – psixologik qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ayniqsa, olimning "Minerologiya" asarida ta'kidlanganidek, insonning qadr- qimmati o'z vazifasini a'lo darajada bajarishdan iboratdir. Shuning uchun ham shaxsning eng asosiy vazifasi va ijtimoiy turmushdagi o'rni mehnat yohud uning kasbi bilan belgilanadi. Zero, inson o'z xohishiga mehnati mahsuli va uning kasbi bilan erishadi. Lekin bu yo'nalishda uzluksiz izlanishlar olib borilishi tufayli ijtimoiy turmushda shaxs o'z izini qoldiradi xolos.

21- asrning donishmandi Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devonu lug'atut turk" asari orqali har bir insonni oqilu dono bo'lishga, aql-zakovot bilan ish qilishga, jamiyat uchun foydali biror kasb-hunar bilan muntazam ravishda shug'ullanishga da'vat etadi. Mazkur asarda kasbga qo'yiladigan talablar insonning individual xususiyatlariga mos tushishi g'oyasi yotadi.

Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning butun hayoti, faoliyati va ijodiyoti mehnat ahlini va kasb-hunarni yuksak darajada qadrlashga qaratilgandir. Navoiyning deyarli har bir asarida insonning kasb-hunar orqali qadr topishi va ulug'lanishi tarannum etiladi.

Jumladan: " Hunarni asrabon netkumdir, oxir,

Olib tufroqqamu ketgumdir, oxir",

Deganida Alisher Navoiy kasbning naqadar e'zozli va qimmatli ekanini qayta-qayta ta'kidlab o'tadi. Kasbning yaroqlilik, moyillik masalalari ham uning asarlarida mujassamlashgandir.

Kasbiy niyatlarning barqarorligini o'rganish yuzasidan N.P.Krilov o'tkazgan tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, o'z niyatlarini amalga oshirish maqsadida, oliy

o'quv yurtlariga kirgan talabalar orasida ham ko'pchilik shaxslar o'zlarining kim bo'lishlarini oxirigacha hal qilolmagankar. Bunga sabab - maktabni bitirgan o'spirinlarni mazkur oliy o'quv yurtiga olib kelgan kasb haqidagi tasavvurlar bilan bu kasbning haqiqiy, amaliy mazmuni o'rtasidagi nomuvofiqlikdir. Ularning ko'pchiligi mazkur oliy o'quv yurtiga tasodifan kirgan bo'ladilar: "otam vrach bo'lganligi sababli kirdim", "do'stim kirgani uchun kirdim", "chunki bu yerga kirish osonroq bo'ldi" va hakazo. Shuni ta'kidlash o'rinliki, o'zining kasbiy taqdirini tasodifan hal etish murakkab kechinmalarga, og'ir ichki nizolarga, ziddiyatlarga olib kelishi mumkun va bu voqelik sodir bo'ladi. Bu narsa yigit –qizlar uchun ham, jamiyat uchunham katta zarar keltiradi (V.A.Kruteskiy).

E.G'oziyev va R.Asomovalarning tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, motiv va motivasiya tizimi tizimi shaxsning faoliyati, muomilasi, xatti-harakatining ichki regulyasiyasi funksiyasini bajarib, ehtiyojini qondirish, xohish-istak, ezgu niyat, orzu-tilak, mayl, his-tuyg'u, ustanofka, ideal, imon-e'tiqod, vijdon, maqsad qo'ya olish va boshqalarni amaliyotga ro'yobga chiqarishning bosh omili hisoblanadi.

Motiv va motivasiya faqat bilimlarni o'zlashtirish, o'quv malakalarini egallash, muomala maromini qo'llash bilangina cheklanib qolmasdan, balki shaxsning xulq-atvorini, yangi xislatlar namoyon bo'lishini ham izohlab berishga xizmat qiladi.

Psixolog S.L.Rubinshteyning fikricha, motivasiya - bu psixika orqali hosil bo'ladigan determinasiyadir, motiv- bu shaxs xulq-atvorining kognitiv jarayonini bevosita tashqi olam bilan bog'lovchi sub'ektiv tarzda aks etishi demakdir. Psixolog E.G'oziyev ma'lumotlariga qaraganda, motivning tuzilish tarkibiga shaxsning yo'nalganligi, xarakter xususiyatlari, his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari, faoliyat yo'nalishlarida ifodalangan ehtiyoji, qiziqishi, mayli, ustanofkasi kiradi. Zero, u yoki bu shaxsning motivlari tuzulishini, ularning asosiy funksional mexanizmlarini hamda shakillanish jarayoniga yo'naltirishning strategik rejasini ishlab chiqishni psixologik jihatdan tushunish muhim ahamiyat kasb etadi.

R.Asomova tadqiqotida kasbiy motivlar birlamchi ahamiyatli motivlar sifatida quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganiladi: a) ijtimoiy motivlar, b) guruhiy hususiyatli motivlar, v) prosessual motivlar, g) rag'batlantiruvchi motivlar. Mazkur motivasion guruhlarining o'ziga xos har bir jihati tadqiqotchi tomonidan ilmiy asoslab beriladi.

Umuman, shaxs motivasiyasining shakillanishi E.G'oziyev modifikasiyasi bo'yicha quyidagi yo'nalishlarga asoslanadiki, bu yo'nalishlar, bizningcha, kasb tanlashga munosabat motivasiyasining nazariy asoslarini belgilashga xizmat qiladi.

Motivasiya shakillanishining birinchi yo'li - bu ko'pincha "yuqoridan pastga" deb nomlanib, talabalarda o'quv motivining namunalari ideal darajadagisini tarkib toptirishda o'z xulqini ular bilan qiyoslash orqali

o'zlashtiriladi, shaxsiy motivlar esa jamiyat tomonidan taklif qilinganlari bilan mujassamlashtiriladi.

Motivasiya shakillanishining ikkinchi yo'li “ pastdan yuqoriga ” deb atalib, talaba ijtimoiy hayotdagi faoliyat turlarida bevosita ishtirok etadi, axloqiy xulq-atvor, faoliyat ko'nikmalarini amaliy jihatdan egallab boradi, unda real, haqiqiy, adekvat motivlar yuzaga kela boshlaydi.

Psixolog A.N.Leontev o'zining “ Faoliyat, ong, shaxs ” nomli monografiyasi orqali (1975) motivasiya talqiniga yangicha yondashuvga o'z nazariyasini fanga kiritdi, mazkur yondashuv esa motivasiya va munosabat uyg'unligining shaxs faoliyatida namoyon etilishini nazariy jihatdan asoslanishiga xizmat qiladi. Demak, A.N.Leontev talqinidagi shaxs, faoliyat, ong va va ijtimoiy faollik o'rtasidagi psixologik mutanosiblikning mavjudligi shaxs munosabatlari tizimining psixologik mexanizmlarini yaratishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. V.D.Shadrikov tomonidan (1974) asoslangan munosabat motivasiyasi jarayoni faoliyat tizimining funksional psixologik modeliga bog'liq ravishda faoliyatli yondashuv motivasiyasi kasbiy tayyorgarlikning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik istiqbollari ochib berishda, shuningdek, ma'lum darajada shaxs va umumkasbiy taraqqiyot yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

V.G.Aseev (1976) tadqiqotlarining shaxs munosabatlari tizimiga daxldor bo'lgan boshqaruv motivasiyasi, B.S.Merlin (1973) izlanishlarining shaxs va kasbning individual motivasiyasi, P.M.Yakobsan (1969) ning munosabat motivasiyasi va ijtimoiylashuvi kabi nazariy qarashlarining yaratilishi munosabat tizimida ma'lum metodologik muammolarni izohlab berishga xizmat qiladi.

Psixolog L.I.Bojovich (1968) va uning shogirdlari olib borgan izlanishlarda o'quvchi shaxsi motivasiyasi zamirida yotuvchi munosabat jarayonining ayrim psixologik tamoyillarini ochib berishga harakat qilinadi. Ularning mazkur ilmiy g'oyasi asosan shaxsning yo'nalishi, uning motivlar bilan aloqadorligi, atrof-muhitga nisbatan munosabatlar esa motivasiya tuzilishi bilan bog'liqligi yuzasidan mulohaza yuritish mumkinligi muqarrarligini asoslash imkoniyati bilan qimmatlidir. Zero, shaxs munosabatlari o'zining davr taraqqiyotida ma'lum muhitga va motivasiyaga bog'liq holda o'zgarib borishi, yohud ijtimoiy jihatdan takomillashishi tabiiydir. Bu tabiiylik zamirida, albatta shaxsning yo'nalganligi, ijtimoiy faolligi va ijtimoiy imkoniyatlarining keng ko'lamda namoyon etilishi yotadi.

A.B.Darinskiyning tadqiqotlarida qayd etilganidek, yoshlarning oliy ma'lumot olishga intilishining ijobiy tomonlari borligi bilan birga, buning salbiy oqibatlari ham mavjuddir. Jumladan, yuqori sinf o'quvchilari o'zlari tanlagan oliy o'quv yurtiga kirish uchun imtihan topshiradigan 3-4 ta fanni chuqur o'rganishni mo'ljallaydilar, xolos. Boshqa fanlarni o'rganish uchun vaqt sarflash oqilona va samarali ish deb hisoblanmaydi. Buning uchun esa “qoniqarli” baho olinsa

bo'lgani. Ikkinchidan, tanlangan fanlarni o'rganish orqaligina u yoki bu kasbga munosabat shakillanadi. Natijada aksariyat hollarda bunday bir tomonlama psixologik ustanofka o'z niyatlarini amalga oshira olmagan bitiruvchilarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi davrda maktablarning kasbga yo'naltirish amaliyotida E.A.Klimovning DTS (differensial- tashxis so'rovnoma) metodikasi keng qo'llaniladi. Shubhasiz, uning qimmatini yuqori sinf o'quvchilarida kasb tasnifi doirasida qiziqish va moyilliklar shakillanganligi bo'yicha ma'lumotlar olish imkoniyati sanaladi.

Mazkur metodika xilma-xil kasblarni inson bilan o'zaro ta'sir etuvchi predmeti orasidagi bog'liqlik tufayli beshta turkumga ajratish asosiga qurilgan. Bular: "Inson- texnika", "Inson- inson", "Inson- tabiat", "Inson- belgilar tizimi", "Inson- badiiy obraz".

Psixolog R.Sunnatova E.A.Klimov metodikasining 9 yillik umumta'lim maktabida keyingi ta'lim tizimiga muvofiqlashtirish maqsadida modifikasiyalashgan variantini tavsiya etadi.

O'rta maxsus, kasb ta'limi muassasalarida kasb va ixtisoslik yo'nalishlari tasnifiga asoslanib, ularning barcha xilma-xilligi 12 yo'nalishga bo'linadi: 1) sanoat (mashinasozlik, yingil sanoat, oziq-ovqat sanoati va hokazo); 2) transport; 3) aloqa; 4) qurilish; 5) uy-joy kommunal ho'jalig; 6) qishloq va o'rmon xo'jaligi; 7) sog'liqni saqlash; 8) ta'lim; 9) madaniyat va san'at; 10) ijtimoiy-iqtisodiy soha; 11) savdo, xizmatlar va umumiy ovqatlanish sohasi; 12) belgilar tizimi.

Mazkur metodikaning qimmatini shundaki, unda tegishli kasblar negizidagi eng og'ir, qiziqish uyg'otmaydigan faoliyat turlari tavsiya etiladi. Masalan tibbiyot sohasida: laborantning tibbiy analiz olish bilan bog'liq ishi, kuyganda yordam ko'rsatish va hokazo. Taxmin qilinadiki, o'quvchiga kasbning "kundalik" qismi qiziqarli bo'lsa, unda qiziquvchanlik yuzaga keltiruvchi, tashqi tomoni ham albatta ahamiyat kasb etadi. Uning yana bir qimmatini - bu qiziqarli fanlarga oid o'quv faoliyatiga emas, balki kasbiy faoliyatning mehnat unsurlariga, tarkiblariga yo'nalganlikdan iboratdir.

Yana bir muammo shundaki, ko'pgina o'smirlar kasb turlari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lmaganliklari sababli, ularni to'g'ri tanlay olmaydilar. Tanlanilgan u yoki bu kasb shaxsning sifatlariga qanday talab qo'yishni ham bilmaydilar. Ikkinchidan, o'smirlar o'zlarining biror kasbga layoqatli ekanliklarini hamma vaqt ham ob'ektiv aniqlay olmaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston",2007.

2. Ulug'bek Sattorovich Jumayev “O'quvchilarda kasb tanlashga munosabat tizimi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari”. Monografiya. T. “Navro'z” Nashriyoti, 2017 yil, 15-28 betlar.

3. Nasiba Mardonovna Mardonova, Nusrat.M, Sharipov N.M, Ro'ziyev F.J, “Kasblar olamiga sayohat”- T., 2016.5-16 ,betlar.

4. Зарипова, Г. К., & Рузиева, К. И. (2018). Использование интерактивных методов в процессе обучения студентов компьютерным технологиям. Проблемы педагогики, (7 (39)).

5. Ramazonov, J. J. (2021). The role of self-governance in providing personal perfection. Scientific progress, 2(2), 1075-1078.